

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTIQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladi. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

TEATR SAN’ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV

Shukurov A.

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy tadqiqot insituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Milliy teatrdagi sahnalashtirilgan Amir Temur va boshqa spektakllar misolida o’sha davr tarixiy jarayonlarining rejissyor va aktyorlar talqinida mahorat bilan namoyish etilishi ilmiy tahlil qilingan. Maqolada teatr san’atini bugungi kunda yanada rivojlantirilishidagi muammo va yechimlar bo’yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: Milliy teatr, Amir Temur, repertuar, tarixiy asarlar, spektakl, tarixiylik, aktyor, rejissyor, Yildirim Boyazid.

Abstract. This article scientifically analyzes the skillful presentation of historical processes of that period in the interpretation of the director and actors, using the example of Amir Temur and other performances staged at the National Theater. The article provides suggestions and recommendations on the problems and solutions for the further development of theatrical art today.

Keywords: National Theater, Amir Temur, repertoire, historical works, performance, historicity, actor, director, Yildirim Bayazid.

Аннотация. В статье научно анализируется искусное представление исторических процессов того периода в интерпретации режиссера и актеров на примере спектаклей «Амир Темур» и других постановок Национального театра. В статье даются предложения и рекомендации по проблемам и решениям для дальнейшего развития театрального искусства сегодня.

Ключевые слова: Национальный театр, Амир Темур, репертуар, исторические произведения, спектакль, историчность, актер, режиссер, Ёылдырым Баязид.

Kirish. O‘zbek milliy teatr san’atida tarixiy asarlarni sahnalashtirish XX asrning boshlarida shakllangan bo‘lib, mashhur rejissyor Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnalashtirilgan Shakspirning “Gamlet” asarini bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Bugungi kunda Milliy teatr rejisyori Turg‘un Azizov tomonidan ushbu asarning qayta sahnalashtirilishi tarixiylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan holda an’anani davom ettirib yangicha yondashuvni kashf qildi. Undan tashqari maqolada teatrlarning moddiy texnik bazasini yanada oshirish

maqsadida marketing va menejment xizmatlarini jonlantirish yuzasidan muammo, yechimlar va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Teatr san‘atini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq hukmron mafkura tomonidan man etilgan tarixiy asarlar yohud o‘sha davr siyosatiga moslab talqin qilingan buyuk siymolarimizning bajargan ishlariga yuzaki qaragan holda sahnalashtirilgan asarlar qayta ishlanib, tamoshabinlarga taqdim etildi. Bunga misol tariqasida Amir Temur siymosini qayta gavdalandirish jarayonida uni shafqatsiz sarkarda va qotil sifatida emas, balki adolatli hukmdor, rahmdil, xalqparvar shaxs sifatida namoyish etilganini ta’kidlash joiz. Har ikki davrdagi teatr san‘atiga munosabat o‘sha davrda sahnalashtirilgan asarlarning bugungi kundagisi bilan qiyoslab o‘rganildi. Maqolani yozish jarayonida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, yozilgan dissertatsiyalar, o‘quv qo‘llanmalar o‘rganilib tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil qilish metodi, manbalar asosida ishlash, tarixiy yondashuv asosida ish olib borildi. Jumladan, 1939-yilda Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnalashtirilgan “Gamlet” asarining Turg‘un Azizov rejisyorligida qayta sahnalashtirilishi va uning farqli jihatlari o‘rganildi. Bugungi kun teatr san‘ati rivoji uchun taklif va tavsiyalar ishlandi.

Asosiy qism. Mamlakatimizda professional teatr san‘atini yanada rivojlantirish uchun uning boy tarixini, ajdodlarimizning o‘lmas merosini, Mustaqillik yillarida erishgan ulkan yutuqlarimizni, bugungi zamonaviy qahramonlar siymosini aks ettiruvchi badiiy barkamol asarlar yaratishni rag‘batlantirish orqali, xalqimiz ma’naviyatini yanada yuksaltirish, yosh avlod qalbi va ongiga ezgulik g‘oyalarini singdirishda teatrlarning rolini yanada kuchaytirish lozim edi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning “Hamza nomidagi O‘zbek Davlat akademik drama teatri”ga “Milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risida”gi Farmoni (2001-yil 21-sentabr) e‘lon qilindi. Farmonda O‘zbek Milliy akademik drama teatrining vazifalari besh banddan iborat qilib belgilandi. Katta mas’uliyat, aql-idrok talab etuvchi vazifalarni bajarish uchun teatr jamoasi uzoq muddatda hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarni aniq qilib belgilab chiqqan holda dadil amaliy ishga kirishdilar. Bugungi kunda Milliy teatr repertuarida yuqori talablarga javob beradigan uzoq va yaqin tarixdan hikoya qiluvchi sahna asarlari katta o‘rin tutganini ko‘rib quvonamiz.

Jumladan, tarixni tiklash, millatning ulug‘ farzandlari xotirasini abadiylashtirish, tarixiy siymolar qoldirgan ma’naviy merosni xalq mulkiga aylantirish va ulardan milliy g‘oya targ‘ibotini kuchaytirish, uning ildizini baquvvat qilish ishlarida foydalanilmoqda. Shuni alohida qayd etish kerakki, milliy

tarixga qadriyat sifatida tubdan yondashmoqda. biroq, hukmron mafkura davrida xalq tarixi, madaniy merosiga noto'g'ri yondashish o'zbek dramaturgiyasida tarixiy qahramonlar shaxsini talqin qilishda haqiqatning buzilishiga olib keldi. Xalqning bir farzandini ulug'lash ikkinchisini qoralash bilan amalga oshirildi. Xususan, "Abu Rayxon Beruniy", "Abu Ali ibn Sino" pyesalarida qomusiy olimlarning hayotidagi fojialarning asosiy sababchisi turkiylarning ulug' sarkardasi Mahmud G'aznaviy shaxsiyatiga soya tashlandi. "Mirzo Ulug'bek" fojeasida Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning olimlik, davlat arbobi va inson sifatidagi faoliyati xolis ko'rsatilgan holda xalqning buyuk siymosi Xoja Ubaydulloh Ahror shaxsiga qora bo'yoq chaplandi. "Alisher Navoiy" dramasida temuriy shahzoda Husayn Boyqaro konfliktini rivojlantirishning qurboni bo'ldi.

Istiqlolga erishganimizdan so'ng Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardalar, Xoja Ahmad Yassaviy, Imom al Buxoriy, Baxouddin Naqshband, Ahmad al Farg'oniy, Hakim at Termiziy, Mashrab, Ibn Sino, Ogahiy kabi xalq ma'naviy, ilmiy merosi, jahon tamadduniga ulkan xissa qo'shgan buyuk siymolarning yubileyleri nishonlandi. Shu bois ajdodlarimiz qilgan ishlarini abadiylashtirish va targ'ib etishga qaratilgan asarlarni sahnalashtirish vazifasini qo'ydi. Jumladan, Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" pyesalari qayta sahnalashtirildi. Alisher Navoiyning dostonlari asosida sahna asarlari yaratildi.

Tarixiy mavzudagi asarlarning aksari aniq tarixiy shaxs hayoti va faoliyatini talqin qilishga qaratilganligi pyesalarda qahramonning fazilatlarini keng ochib berish, xarakteri va jamiyatdagi mavqeini to'la ifodalashda tarixiy-ijtimoiy muxitdan tashqari ular haqidagi barcha materiallar, xususan xalq rivoyatlari, afsonalar, badiiy to'qimalardan ham unumli foydalanilganligini qayd etish lozim. Shuningdek, tarixiy asarlarda davr muxitini ifodalashda milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, diniy e'tiqodiy qarashlar, tarixiy shaxslar bilan bog'liq afsonalarni hisobga olish spektaklni sahnalashtirishning eng muhim jihati hisoblanadi. Amir Temur shaxsi, uning vatan va jahon tarixida tutgan o'rnini talqin etishga qaratilgan o'ndan ortiq pyesa yozilib, ulardan ko'pchiligi sahnalashtirilgan. Istiqlol bergan ijodiy erkinlik sobiq tuzum davrida ta'qiqlangan va ta'qib etilgan mavzulardagi asarlarni sahnalashtirish imkonini bersada, bu borada milliy dramaturgiya va sahna san'atidagi ilk asarlarni yaratilishida jahon dramaturgiyasiga tayanish kuzatildi. Amir Temur haqida Kristofer Marlouning "Buyuk Temur" tragediyasi, Iogann Volfgang Gyotening "Temurnoma", ingliz adibi Charlz Saunders qalamiga mansub "Ulug' Temur" tragediyasi, Abdulla Xotifning "Temurnoma" dostoni, fransuz

tarixchisi Rene Grussening “Sahna saltanati”, Samuil Klarkning “Buyuk Tamerlanning hayoti” kitobi, pokistonlik Aziz Bahoriy, Aziz Ahmad, rahi Aslam singari romanlari, Ahmad Hasan Donining “Temur merosi”, mirslik Sayyid Faraj, eronlik Muhammad Ahmad Panohlarning ilmiy-ma’rifiy asarlari mavjud bo’lgani holda milliy dramaturgiyada Sohibqiron faoliyati aks ettirilgan asarning mavjud emasligi Kristofer Marlouning “Buyuk Temurlang” asari asosida “Sohibqiron Temur”, asari ta’sirida “Amir Temur va Yildirim Boyazid” dramalari yaratilishiga asos bo’ldi. “Sohibqiron Temur” spektakli ingliz dramaturgi Kristofer Marlouning “Buyuk Temurlang” tragediyasi (A.Samad tarjimasi) asosida 1992-yilda O’zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirildi. Bundan deyarli to’rt asr ilgari yozilgan, sohibqiron siymosi afsonalar va rivoyatlar, badiiy to’qimaga tayanib yaratilgan spektakl Qur’onning muazzin tovushi bilan boshlanib, u bilan yakun topadi.

Xususan, A.Samad ham asarda Amir Temur shaxsida vatanparvarlik, olijanoblik, kuchli xarakter xususiyatlarini ko’rsatishga intilishi, sohibqironning adolat himoyachisi sifatidagi jihatlariga urg’u berish, sarkardaning kuchli xarakteri, jahon tarixida egallagan o’rni va xizmatlarini ifodalashda Temur hayotiga bag’ishlangan afsonalar, diniy rivoyatlardan foydalanish asar voqealarini rivojlantirish, konfliktni kuchaytirish vazifasini bajargan. Asarning ilk voqealaridanoq bu ko’zga tashlanadi. Xususan, Amir Temurning To’xtamishxon ustidan qozonilgan g’alabasidan so’ng o’tkazilgan mashvarat sahnasida To’xtamishxonning tavba-tazarru bilan bitilgan xati muhokama etiladi. Temur avvaliga To’xtamishxonni kechirishi haqida qaror bersa-da, Saroymulkxonimning Muhammad payg’ambar (s.a.v.) va chayon haqidagi rivoyatini eshitgach, qarorini o’zgartiradi va To’xtamishxonni butunlay tor-mor keltiradi. Yoki, qoraquyunlilar sardori Qora Yusufga qarshi urushning ochilishiga uning Makka va Madinaga borayotgan karvonlarni bosqin qilishi sabab qilib ko’rsatiladi va o’z navbatida Yildirim Boyazid o’rtasidagi konfliktni yaratishga asos bo’ladi. Rum Qaysarining Sohibqiron uch kun muddatda Boyazid bilan jang qilishdan bosh tortsa, xotinlari uch taloq bo’lishi mazmunida bitilgan xati jangning muqarrarligini ta’minlagan. Asarda katta tarixiy davr qamrab olingan bo’lib, dastlab Temur 35 yoshda, voqealar rivojida 69 yoshli oqsoqol qiyofasida gavdalanadi. Dramaturg sohibqiron xarakteridagi o’zgarishlar, uning o’ziga xos xarakterini talqin qilishga e’tibor qaratar ekan, Amir Temur bilan bog’liq rivoyatlardan unumli foydalanadi. Xususan, spektaklda “Ikki vafoli yor” hikoyasi asosidagi kichik sahna Amir Temurni “Kuch adolatda” degan shiorni hukmronligining mezonini deb biluvchi sohibqironga xos jihatlarini talqin etishda o’ziga xos yechim bo’lgan.

Darsliklarda “Ikki vafoli yor” nomi bilan shartli ataladigan Alisher Navoiyning “Hayratul abror” dostoni “Vafo” bobida keltirilgan hikoyatda insonlar oʻrtasidagi oʻzaro mehr-muhabbat, sadoqat, oqibat gʻoyalari ulugʻlanadi. Hikoya voqealarida Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishida ikki doʻstning bir-birlariga sadoqatini koʻrib butun xalqni jazodan ozod qiladi. Dramaturg hikoyani pyesaga kiritishda asar maqsadidan kelib chiqib yondashadi va bu kutilgan natijani beradi. Spektaklni yaratishda rejissyor K.Yoʻldoshev akademik teatr anʼanalari ruhidan kelib chiqib asarga yondashgan, mutaxassislar asarning voqealari koʻp boʻlsada, kulminatsion nuqta topilmaganligi, bayonchilik bilan chegaralanganligi, qahramon xarakteridagi ziddiyatli holatlarni talqin qilishga yetarlicha eʼtibor berilmaganligini qayd etilganlar. Mannon Uygʻur nomidagi Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan Q.Abdunabiyevning “Amir Temur va Yildirim Boyazid” (1991-yil) spektaklida ikki shaxsning toʻqnashuvi orqali tarixiy davr muhiti aks ettirilgan. Asar tarixiy faktlarga boyligi, Temur shaxsining oʻziga xos jihatlari talqini bilan ushbu mavzudagi boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Asarda bosh qahramon turkiy qavmni birlashtirish orqali umumdavlatni tuzish yoʻlida kurashgan shaxs sifatida gavdalansa-da, nayranglar sabab ikki buyuk turkiy sarkardaning oʻzaro nizosi oqibatlari aks ettiriladi.

Muallif Amir Temur va Yildirim Boyazid oʻrtasidagi kurashning tub sabablarini topish, bunda ikki jahongashtaning ham aybdor ekanligini koʻrsatish va taqdirning yozigʻi haqida mushohada qilishga undaydi. Spektakl 1402-1403 yillarda Qorabogʻda Sohibqironning Sulton Boyazid ustidan qozonilgan gʻalabasini nishonlash voqealari bilan boshlanadi. Amir Temur Boyazid ustidan gʻalaba qozongan boʻlsa-da, turkiy xalqni qirgʻin qilganidan vijdoni azoblanadi va voqealar rivojida buning asl sabablariga oydinlik kiritiladi. Rejissyor R.Mansurov spektakldagi konfliktni asar mazmunidan kelib chiqqan holda, yaʼni ikki dunyoqarash toʻqnashuvchi tarzida hal qilgan. natijada spektaklda Amir Temur (aktyor H.Oripov) ziddiyatli va murakkab obraz sifatida namoyon boʻladi. Aktyor ijrosida ichki qarama qarshilikka eʼtiborning qaratilishi, sohibqiron siymosining kuchli xarakterini toʻliq ochib berishga xizmat qiladi.

Turli ruhiy iztiroblar oqimida baʼzan bilib, baʼzan bilmay qilingan xatolardan aziyat chekish holatlari ijodkor tomonidan mahorat bilan ijro etilgan [1].

Oʻzbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “Sohibqiron” sheʼriy dramasi yubiley munosabati bilan yaratilib, asar buyuk sarkarda hayoti va faoliyatining barcha qirralarini qarab olganligi, tarixiy manbalardan olingan aniq maʼlumotlarga boyligi bilan oldin yaratilgan asarlardan farq qildi. Spektaklning rejissyor

O.Salimov, rassom B.To‘rayev, bastakor A.Ergashev ijodiy hamkorligida sahnalashtirilishi, shuningdek yubiley munosabati bilan Amir Temur haqidagi manbalarning har tomonlama puxta o‘rganilishiga yaratilgan sharoit sabab to‘liq va aniq faktlarga tayangan holda talqin etilishi katta muvaffaqiyatga erishish imkonini berdi. Dramaturg asar mag‘ziga tarixiy voqealarni kiritar ekan, uning badiiy jihatlariga e‘tibor qaratish bilan birga turli tarixiy ziddiyatlarda Amir Temur shaxsining o‘rni va ahamiyati, uning o‘ziga xos qirralarini talqin qilishga intiladi. Asarda bayonchilikdan voz kechilgan holda sarkarda hayotining eng muhim, ziddiyatli voqealariga tayanilishi Amir Temur shaxsining to‘liq ochib berilishiga yordam bergan. Prologda beshikning yuqoriga intilishida ham Sohirqironning ilohiy taqdirini ko‘rsatish maqsad qilingan.

Ushbu spektaklda ham jahon tarixida katta iz qoldirgan Amir Temur va Yildirm Boyazid jangi asarning kulminatsion voqeasi sifatida talqin etilgan. Muallif mahorabaga sabab qilib ikki sarkardaning tarixiy sharoitdagi vaziyatni ko‘rsatadi va Q.Abdunabiyevning asaridan farqli sarkardalarning bu vaziyatda shaxs sifatidagi xarakterini talqin etadi. Spektaklda Amir Temur obrazining Tesha Mo‘minov eng avvalo uzoqni ko‘radigan sarkarda, salohiyatli lashkarboshi, shu bilan birga suyukli yor, mehribon qaynota, talabchan ota, murakkab iztirobli ichki dunyosiga ega shaxs sifatida gavdalandirgan. Aktyor talqinida qat‘iyatli, ulug‘vor, bosiq Amir Temur, kezi kelganda qalban sodda, vujudidan aql va kuch ufurib turgan insoniyligi ochib berilgan. Ma‘lumki, teatlarda sahnalashtirilgan har bir asar yillar o‘tib qayta sahnalashtirilganida yangicha talqin va yondashuv yuzaga keladi. Bunda sahnalashtiruvchi rejissor hamda aktyorlar mahorati va ijodiy salohiyati asosiy omil hisoblanadi [2].

Dalil sifatida 2003 - yil O‘zbek Milliy akademik drama teatrining “Gamlet” tragediyasiga to‘rtinchi bor murojaat etishi edi. Ma‘lumki, ilk bor 1935 yilda Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnalashtirilgan “Gamlet” 1939 va 1929 yillarda qayta sahnalashtirilgan edi. Har safar tomoshabin yangi talqindagi Gamletni ko‘rganda, uyg‘onish davri qahramoninigina emas, o‘z ruhiga yaqin qahramonni ko‘rgandek bo‘laveradi. Rejissyor Turg‘un Azizov ma‘lum darajada Mannon Uyg‘ur talqinidan ta’sirlanib, tragediya mazmunini to‘la saqlab, undan chetga chiqmaslikka harakat qilgan bo‘lsa-da, Gamlet, Ofeliya, boshqa qahramonlarning xatti-harakatlarini, kurashini, iztiroblarini ilgariday romantik bo‘yoqlar bilan ko‘rsatishga 191 emas, balki real voqelik natijasi sifatida ko‘rsatishga e‘tibor qaratdi. Rejissyorning asosiy vazifasi dunyodagi adolatsizliklarni tahlil qilish bo‘lgan. Spektakl davomida Gamletning “davri izidan chiqdi” so‘zi besh joyda qaytariladi. Spektaklda davrning izidan chiqqanligi, insonlardagi iymonu e‘tiqod,

insof-u diyonat ketib, ma'naviy tubanlashish kasofati saroydan boshlanganligi ko'rsatiladi. Voqealar boshidan oxirigacha xiyonat sohibasi Gertrudaning ochiq yotog'i poyida yuz berishi bunga ishoradek. Tohir Saidov talqinidagi Gamlet go'yo bugungi kun qahramoni. U hech narsadan shubhalanmaydi va afsuslanmaydi. Ijro ham shunga yarasha. Rejissyor g'oyasiga ko'ra, dunyodagi barcha insonlar tubanlashib ketgan, ular qilayotgan harakatlari uchun javob bermaydilar. Tohir Saidov talqinidagi Gamlet ana shunday adolatsizliklarga qarshi kurashishga harakat qiladi, u bunday tuban odamlar orasida yashay olmasligini e'tirof etadi.

Gamlet aqlli, shu bilan birga biroz jizzakiroq. Sevgilisi Ofeliyaga bo'lgan munosabatida ham shu sezilib turadi. Hattoki, o'z onasi bilan bo'lgan muloqatida ham unga nisbatan qahr sezilib turadi. Rejissyor talqini Gamlet rolini ijro etgan Tohir Saidovgina emas, Ofeliya rovida chiqqan yosh aktrisa Gulchehra Eshonqulova va Qirol – M.Abduqunduzov, Gertruda – S.Yunusova, Arvoh – T.Mo'minov, Go'rkov – R.Karimov samimiy va yangicha ijrolari tufayli ro'yobga chiqqan [3].

Yuqoridagi fikr, mulohazalarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, shu kabi tarixiy va boshqa janrlarda sahnalashtirilayotgan spektakllarda tamoshabin qamrovini kengaytirish natijasida teatr moddiy texnik bazasini mustahkamlash hamda uning mavqeyini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridandir. Bu borada zamonaviy teatr va konsertlar iqtisodiyoti nazariyasining asoschisi, Nobel mukofoti laureati, atoqli amerikalik iqtisodchi olim Uilyam Boumolning "Ijrochilik san'atlari: iqtisodiy dilemma" nomli asarida keltirilgan fikrlar alohida ahamiyatga egadir. Muallif xulosasiga ko'ra: teatrni iqtisodiy yuksaltirishda ikki toifalik insonlarning roli katta bo'lib, bular "molchilar" va "byudjetchilar"ga bo'linadi. o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, "molchilar" teatrni o'z-o'zini boshqarish va o'zini moliyalashtirish asosida faoliyat olib borishini ta'kidlasa, "byudjetchilar" esa davlat hisobidan ajratilgan mablag' asosida faoliyat olib borishini ma'qullaydi. Shu ikki toifani o'rtasidagi tortishuvlarni xarakterlash orqali quyidagi xulosalarga keladi:

1.G'arbda keyingi yillarda san'atga davlat assignatsiyasi oshirilishi kuzatiladi.

2.Davlat tomonidan moliyalash bilan birga san'atni mahalliy, jamiyat, korporativ va yakka tartibda moliyalash shakllari ham yashab keladi.

3. San'atni moliyalashda qatnashgan firmalar, tashkilotlar va xususiy shaxslarga nisbatan imtiyozli soliq va puxta o'ylangan ijtimoiy siyosatni qo'llash.

4.Ijodiy faoliyatni moliyalashda qatnashish ijodga ta'sir o'tkazish yoki aralashish, ayniqsa, rejalashtirish va boshqaruvda qatnashish degani emas.

Bugungi kunda rus teatrshunoslari menejment va marketing bo'yicha jahon teatrida kechayotgan jarayonlarni diqqat bilan kuzatib borayotganlari mu'lum. Bunga misol sifatida F.Kotler bilan Dj.Sheffning ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilingan "Все билеты проданы: стратегия маркетинга исполнителних искусств" (-M.: Klassika M., – XXI, 2004. -688 c), Alen Gersogning V.D.Xan-Magamedov tomonidan fransuz tilidan ruschaga o'g'irilgan "Sluchay s teatrom dlya Kolin" (teatr ma'murlari uchun tayyorlangan kurs) Kultura v sovrimennom mire: opit, problemi, resheniya: Nauch, -inf, sb. – M.: RGB; inform-kultura, 2002.- Vip.3. – S.105-113), S.Lenglining I.Valkova tomonidan ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilingan "Ideya dlya teatra. Menejer dlya idei (amerikanskaya model)" (ART – menejer, -M., 2003, -№ 1), Germaniyaning Moskvadagi elchixonasi saytiga e'lon qilingan K.Xaydeggerning "Kogda teatri otrpavlyayutsya v put: znakomstvo regionalnimi teatrami Germanii". R.Sheyganning V.Babkova tomonidan ingliz tilidan tarjima qilingan "Gostroli. Kak prodavat iskusstvo" (Sb.st. – Novosibirsk: Sibirskiy xronograf, 2001. – S. 176-183) ishlarini ko'rsatish mumkin. YE.I.Puchkovaning "Marketing v Rossiya i za rubejom" jurnalida 1998-yilning 1-3-sonlarida bosilgan "Marketing v sfere teatralnogo iskustva" maqolasida muallif marketing tushunchasi rus teatri san'atida yangilik bo'lib, endi-endi ishlana boshlaganini, ammo bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida o'ta muhimligini ta'kidlab shunday deb yozadi: "Teatr san'ati sohasida marketingni o'rganish ko'pgina sabablardan hosil bo'ladi. Bugungi kunda teatrning normal ishlashi bir qator faktorlarga bog'liq: obyektning teatr xizmatlari bozorida qanday joylashganidan, teatr boshqaruvi darajasidan, ma'muriyatning uddaburonligi,tajribasi va qobiliyatidan. Faqat teatrning o'zi mavjud konyuktura va talablarni to'g'ri baholab, chiptalar bahosini belgilashi mumkin, toki o'z tomoshabinini yo'qotmasin. Teatr marketing strategiyasini belgilash uchun muttasil o'z ishini holatlarga qarab kompleks tahlil qilib borishi zarur".

Rossiya Teatr san'ati akademiyasi RATI (GITIS)da dunyoda va MDH miqiyosida ilk bor prodyuserlik fakulteti ochilgan bo'lib, faqat teatr san'ati uchun emas, balki xoreografiya va sirk san'ati bo'yicha ham menejerlar tayyorlana boshlagan. Bunday noyob mutaxassislarni tayyorlashda 25 kafedra xizmat qiladi. Bu fakultetni bitiruvchi menejerlar, prodyuserlar jahon madaniy hayotida kechayotgan jarayonlarni tushunadigan, keng fikrlay oladigan, dramaturgiya va sahna san'atida yaratilayotgan har qanday asarga baho bera oladigan, mustaqil ijodiy loyihalar tuzib, amalga oshira oladigan mutaxassis bo'lib yetishuvi maqsad qilingan. Prodyuserlik bo'limi A.P.Chexov nomidagi MXAT teatriga qarashli oliy maktab-studiyada ham ochilgan. Rossiyaning ko'pgina hududlaridagi oliy o'quv

yurtlarida ham maxsus fakultetlar ishlamoqda. Ulardan bo'lg'usi menejerlarni tayyorlash uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari ham mavjud. G.L.Tulchinskiy, YE.L.Shekovaning "Marketing v sfera kulturi" (Sb-Moskva – Krosnodar, izd. "Planeta muziki", 2009. 496 s.), G.L.Tulchinskiy, S.V.Gerasimov, T.L.Loxinaning "Menejment spetsialnix sobitii v sfera kulturi" (izd. "Planeta muziki", 2010 384 s.) darsliklari shu jumladandir.

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan jarayon O'zbekiston teatrlarida ham ma'lum darajada kuzatilgan. Buni bir guruh mutaxassislar tomonidan tayyorlangan hamda muhokama qilingan "O'zbekistonda teatr taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va teatr ishini qayta qurish" nomli loyihadan ham bilib olishimiz mumkin. Biroq, loyihada belgilangan teatr san'atini qayta ko'rish strategiyasi to'la amalga oshdi, deb bo'lmaydi.

Menejment, marketing usullaridan foydalanish, homiylar izlab topish, ijodda erkinlikka intilish 80 – yillar o'rtalarida yuzaga keldi. "Ilhom", "Dard", "Muloqot", "Istiqbol", keyinroq "Eski machit" teatrstudiyalari o'z faoliyatlarini xo'jalik hisobida tashkil eta boshladilar. Mustaqillik davrida bunday ishlar ancha kuchaydi, yetakchi teatrlar – Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri, O'zbekiston Yoshlari teatri, Respublika yosh tomoshabinlar teatri, O'zbekiston akademik rus drama teatri, O'zbek Milliy akademik teatri, teatr-studiyalari o'z faoliyatlarida homiylar, nodavlat tashkilotlari ko'magidan ham foydalandilar. Ammo, ayrim teatrlar eski iqtisodiy tartiblardan voz kecha olmay, menejment va marketing qonun-qoidalarini o'z faoliyatlarida to'la singdira olganlari yo'q. Chunki, maxsus oliy o'quv yurtlarida san'at menejerlari va prodyuserlari tayyorlash hamon yo'lga qo'yilmagan edi. O'zbekiston davlat san'at instituti va Toshkent davlat madaniyat instituti o'quv dasturlariga kiritilgan, ammo ajratilgan dars yuklamalari oz miqdorda bo'lganligi sababli, bu ishlar ko'ngildagiday emas edi. Har qaysi teatrda bittadan menejer yoki prodyuser ishlab, san'at asarlarini tomoshabinga sotishda, dramaturglar, kompozitorlar, balet-meysterlar, zarur joylarda hatto rejissyorlar va aktyorlar bilan maxsus shartnomalar va loyihalar tuzishda jombozlik ko'rsatsa, teatr san'atida ijobiy o'zgarishlar rivojiga xizmat qilgan bo'lar edi [4].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi kunda homiylar va o'z daromadlari hisobiga yashovchi nodavlat teatrlari ko'payib borishi va davlat teatrlari bilan sog'lom raqobatga tushishi teatr san'atining yangi davri taraqqiyotini belgilovchi omilga aylanishi zarur. Davlatning mamlakatdagi barcha teatrlarni o'z tasarrufida saqlab turishi tobora qiyinlashib bormoqda. Eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham davlat teatrlari umumiy teatr jug'rofiyasida ozchilikni tashkil qiladi, qolganlari –

shirkat, xususiy va tijorat shaklidagi teatrlardir. Teatr san'atini rivojlantirishda uning iste'molchilari ya'ni tamoshabinlarning o'rni beqiyos bo'lib, ularni teatrga jalb qilishda bizning quyidagi taklif va tavsiyalarimiz mavjud:

1. Respublikamiz miqyosida faoliyat olib borayotgan teatrlarda tarixiy asarlaning qo'yilishi tamoshabinga milliy tariximiz haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, buyuk siymolarimiz faoliyatini o'rganib ularga hurmat va ehtirom hissini shakllantirishga undaydi. Bu esa, tarixiy shaxslarning nomini abadiylashtirishga muhim hissa qo'shadi. Yangicha talqinda ijro etilgan qahramonlar siymosini gavdalandirib tamoshabin qalbi va ongida muhrlanishiga imkon yaratadi.

2. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda keng qamrovli o'rinni egallab kelayotgan shovshuvli xabarlar o'rniga respublikamizdagi turli teatrlarning spektakllaridan lavhalar qo'yish va unda rol o'ynagan aktyorlar haqida "Mohir aktyor hayoti", "Eng tamoshabop spektakl", "Miliy tariximiz namoyishi", "Jaloliddin qanday vafot etgan?","Boburning to'rtinchi javzasi kim?" kabi kishilarni jalb etuvchi mavzularda roliklar hamda spektakllardan namunalarni joylashtirib borish kerak.

3. Respublika miqyosida ijodiy gastrol safarlarini ko'paytirgan holda jamoaga taniqli aktyor va aktrisalarni jalb qilib, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish lozim. Ayni vaqtda Madaniyat va ma'rifat kanalida "Afisha" ko'rsatuvi orqali Respublikamiz teatrlarida qo'yilayotgan spektakllar va sahna asarlari targ'ibot qilinmoqda biroq, bu biz kutgan natijani bermayapti.

4. Madaniyat va san'atga oid ko'rsatuvlarda faqatgina soha mutaxassislarini jalb qilmasdan keng jamoatchilikni ham taklif qilish kerak.

5. Bundan tashqari, Respublikamizda faoliyat olib borayotgan ixtisoslashtirilgan madaniyat va san'at maktablarida har yili ikki marotaba ko'zga ko'ringan rejissor, aktyor va aktrissalarning bir oylik masterklaslarini tashkillashtirish kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, teatrlar o'z faoliyatini tarixiy va zamonaviylik asosida uyg'unlashgan tomoshalar tayyorlab, rejali va tizimli faoliyat olib borishi marketing va menejmentni jonlashtirish, ularni faoliyati samaradorligining asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha). – Toshkent.: Fan, 1968. 347 b.

2. Qodirov H. Sahnada Sohibqiron siymosi // Turkiston. – Toshkent.: 1997. 15-fevral soni.
3. Sayfullayev N. “Yangi davr O‘zbekiston teatr san’ati: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent.: Lesson Press. 2021.
4. Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. – Toshkent.: 2005.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIW SHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN‘ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARINDA MUZIKA SABAQLARINDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIW	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

